



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti




№2(2)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 156 sahifa,  
2-fevral, 2026-yil.*

## **BOSH MUHARRIR:**

**Karimova E'zoza Gapirjanovna** – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

**Ibragimov X.I.** – pedagogika fanlari doktori, akademik  
**Shoumarov G'.B.** – psixologiya fanlari doktori, akademik  
**Qirg'izboyev A.K.** – Tarix fanlari doktori, professor  
**Jamoldinova O.R.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Sharipov Sh.S.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Shermuhhammadov B.Sh.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Ma'murov B.B.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Madraximova F.R.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Kalonov M.B.** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Nabiyev D.X.** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Qo'ldoshev Q. M.** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Ikramxanova F.I.** – filologiya fanlari doktori, professor  
**Ismagilova F.S.** – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
**Stoyuxina N.Yu.** – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
**Magauova A.S.** – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
**Rejep O'zyurek** – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
**Wookyu Cha** – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
**Polonnikov A.A.** – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
**Mizayeva F. O.** – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
**Baybayeva M.X.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Muxsiyeva A.T.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Aliyev B.** – falsafa fanlari doktori, professor  
**Abdullayeva N. Sh.** – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
**G'afurov D. O.** – falsafa fanlari doktori (Phd)  
**Shomurodov R.T.** – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
**Mirzayeva F. O.** – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Jalilova S.X.** – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
**Bafayev M.M.** – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Usmonova D.I.** – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti  
**Saifnazarov I.** – falsafa fanlari doktori, professor  
**Nematov Sh.E.** – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
**Tillashayxova X.A.** – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
**Yuldasheva F.I.** – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Doniyorov S. M.** – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)  
**Yuldasheva D.B.** – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
**Tangriyev A. T.** – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
**Ashurov R. R.** – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Panjiyev M. A.** – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
**Xudayberganov N. A.** – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li** – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

|                                                                                                                                                                                         |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Kasbiy mahorat va tajribalarni rivojlantirishning mazmuni, shakl va usullari .....                                                                                                      | 22  |
| <i>Yo'ldasheva Feruzaxon Shavkatbekovna</i>                                                                                                                                             |     |
| O'zbek tili darslarida 5E modelini qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish:<br>Chimboy tumani 36-sonli ixtisoslashtirilgan maktab misolida .....                                       | 26  |
| <i>Kojamuratova Ulbosin Punkitbaevna</i>                                                                                                                                                |     |
| Shaxs ijtimoiy faolligi: tushuncha va tahlil .....                                                                                                                                      | 29  |
| <i>Baxriyeva Nargiza Axmadovna</i>                                                                                                                                                      |     |
| Fiziognomika va psixologik yondashuvlar asosida portret qalamtasviri ta'limini takomillashtirish .....                                                                                  | 33  |
| <i>Babadjanov Axmadjan Xudayberdiyevich</i>                                                                                                                                             |     |
| Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini<br>pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish .....                                                          | 37  |
| <i>Nusharov Bobir Bolbekovich</i>                                                                                                                                                       |     |
| Личностные характеристики как ассимиляция системы отношений<br>младших школьников и предмет воспитательного воздействия учителя .....                                                   | 41  |
| <i>Олимова Азиза Кахрамоновна</i>                                                                                                                                                       |     |
| "Vitagen ta'lim texnologiyalari" asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini<br>o'quvchilarda perseptiv qobiliyatni rivojlantirishga o'rgatishning didaktik imkoniyatlari ..... | 47  |
| <i>Tursunboyeva Kamola Iloxmon qizi</i>                                                                                                                                                 |     |
| Ekologik ta'lim va tarbiya asosida talabalarda ekoturistik madaniyatni rivojlantirishning<br>pedagogik-metodik asoslari .....                                                           | 50  |
| <i>Kamolov Baxtiyor Xasanboyevich</i>                                                                                                                                                   |     |
| Individual ta'lim trayektoriyasi: maktabgacha yoshdagi bolalarda ekspressiv<br>nutq buzilishlarining o'ziga xos xususiyatlari .....                                                     | 54  |
| <i>Fayziyeva Nozima Oybek qizi</i>                                                                                                                                                      |     |
| Boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalardan foydalanish samaradorligi .....                                                                                           | 59  |
| <i>Ibragimova Nozima Ulug'bekovna, Pardayeva Hosila Qudratulla qizi</i>                                                                                                                 |     |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda tarbiyachining kreativ roli .....                                                                              | 64  |
| <i>Botirova Lobar Kamolovna</i>                                                                                                                                                         |     |
| O'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish .....                                                                                                                                  | 69  |
| <i>Kaipova Tazagul, Kaipova Elmira</i>                                                                                                                                                  |     |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarini zamonaviy kasb-hunarlariga qiziqitirishda<br>integrativ usullardan foydalanish .....                                                                   | 73  |
| <i>Ergasheva Nigora Erkinovna</i>                                                                                                                                                       |     |
| Proposals for the Development of Education in Teaching Musical-Historical and Theoretical Subjects .....                                                                                | 76  |
| <i>Sobirova Gulkhayo Aktamjonovna</i>                                                                                                                                                   |     |
| Raqamli ta'lim sharoitida talabalarda mediakompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari .....                                                                                     | 81  |
| <i>Rustemov Abseit Trijan o'g'li</i>                                                                                                                                                    |     |
| Hamkorlik ko'nikmalarini takomillashtirishga oid tajriba-sinov ishlarini tashkil etish mazmuni .....                                                                                    | 85  |
| <i>Baxramova O'ramol Uralovna</i>                                                                                                                                                       |     |
| Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning nutqiy<br>kompetensiyalarini rivojlantirishda nazariy asoslanish mohiyati .....                | 88  |
| <i>Boxodirova Muxlisa Xoljigitovna</i>                                                                                                                                                  |     |
| Zoologiya fanini o'qitish jarayonida talabalarning ilmiy-tadqiqot faolligini rivojlantirish mexanizmlari .....                                                                          | 92  |
| <i>Dushekeeva Nasiba Rustembaevna, Arepbaev Islambek Muratbaevich</i>                                                                                                                   |     |
| Ingliz tilini o'rganishda zamonaviy texnologiyalarning roli .....                                                                                                                       | 96  |
| <i>Ergasheva Mehriyona</i>                                                                                                                                                              |     |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining tasviriy ko'nikmalarini<br>shakllantirishning nazariy asoslari .....                                                           | 100 |
| <i>Jummayeva Sayyora Shokir qizi</i>                                                                                                                                                    |     |





|                                                                                                                        |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| The Role of Digital Technologies and Virtual Reality in Modern English Teaching Methodologies .....                    | 104 |
| Seilkhanova Rita Nurniyazovna, Kalbaeva Mexriban Elbrus qizi                                                           |     |
| Sog'lom separatsiya orqali yoshlar sog'lig'ini mustahkamlash:<br>tibbiy-psixologik yondashuvning empirik tahlili ..... | 109 |
| Mavlyanova Surayo Sultanaliyevna                                                                                       |     |
| Badiiy-tarixiy meros asosida pedagog shaxsini tarbiyalash: nazariya va amaliyot uyg'unligi .....                       | 112 |
| Qodirova Mavluda Maxodir qizi                                                                                          |     |
| Gamified Programming Platforms: Analysis and Recommendations .....                                                     | 116 |
| Ra'nokhon Ne'matjon kizi Rakhimova                                                                                     |     |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida giperaktiv bolalar bilan ishlashning ilmiy-nazariy asoslari .....                   | 123 |
| Raimqulova Sojida Abdusaid qizi                                                                                        |     |
| Qandli diabet bilan og'rikan bemorlarga pedagogik yordam ko'rsatish tizimi.....                                        | 126 |
| Shermatova Yakut Sabirovna                                                                                             |     |
| O'smirlar o'rtasida kiberbulling .....                                                                                 | 129 |
| Tashbekova Aziza Mirsuxbatovna                                                                                         |     |
| Uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun tyutorlik yordamini tashkil etish .....                                | 132 |
| Tolipova Pokiza Xasan qizi, Isamuxamedova Dildora Raxmatilayevna                                                       |     |
| Zamonaviy maktablarda xavfsizlik madaniyatining roli.....                                                              | 135 |
| Turdiyeva Zilola Jalilovna                                                                                             |     |
| Global akademik reyting va raqobat muhitida xalqaro olimpiadalarning o'rni .....                                       | 138 |
| Xalikova Umida Mirovna                                                                                                 |     |
| Tarbiyachining bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish jarayonidagi o'rni .....                                        | 143 |
| Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna, Rahimova Umida Abdurasul qizi                                                         |     |
| Biologiya darslarida TIMSS topshiriqlarini integratsiyalash.....                                                       | 148 |
| Zayniyev Suxrobjon Islombek o'g'li, Komiljonova Muslima Shuxrat qizi                                                   |     |
| О трансверсальных компетенции воспитателя дошкольного образования.....                                                 | 153 |
| Садыкова Шоиста Акбаровна, Назарматова Дилшода Умаралиевна                                                             |     |

# EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYA ASOSIDA TALABALARDA EKOTURISTIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-METODIK ASOSLARI

Kamolov Baxtiyor Xasanboyevich

Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarida ekologik ong, ekologik tafakkur hamda barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan ekoturistik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishning nazariy-pedagogik hamda metodik asoslari kompleks tarzda tadqiq etiladi. Tadqiqot jarayonida ekologik ta'lim va tarbiyaning shaxsning aksiologik yo'nalishlarini, ijtimoiy mas'uliyat hissini, tabiatga ehtiyotkor munosabatni hamda ekologik jihatdan maqbul xulq-atvorni shakllantirishdagi roli falsafiy, psixologik va pedagogik yondashuvlar asosida tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** ekologik ta'lim, ekologik tarbiya, ekoturizm, ekoturistik madaniyat, ekologik ong, ekologik tafakkur, ekologik kompetentlik, barqaror rivojlanish, talaba shaxsi, pedagogik metodika, innovatsion ta'lim texnologiyalari, aksiologik yondashuv, amaliy-faoliyatli o'qitish.

**Abstract:** This article comprehensively examines the theoretical, pedagogical, and methodological foundations for the formation and development of ecotourism culture among students of higher education institutions based on environmental awareness, ecological thinking, and the principles of sustainable development. The study analyzes the role of environmental education and upbringing in shaping individuals' axiological orientations, sense of social responsibility, respectful attitudes toward nature, and environmentally responsible behavior from philosophical, psychological, and pedagogical perspectives.

**Key words:** environmental education, environmental upbringing, ecotourism, ecotourism culture, environmental awareness, ecological thinking, ecological competence, sustainable development, student personality, pedagogical methodology, innovative educational technologies, axiological approach, practice-oriented learning.

**Аннотация:** В статье комплексно исследуются теоретико-педагогические и методические основы формирования и развития экотуристической культуры у студентов высших учебных заведений на основе экологического сознания, экологического мышления и принципов устойчивого развития. В ходе исследования с философской, психологической и педагогической точек зрения анализируется роль экологического образования и воспитания в формировании аксиологических ориентаций личности, чувства социальной ответственности, бережного отношения к природе и экологически целесообразного поведения.

**Ключевые слова:** экологическое образование, экологическое воспитание, экотуризм, экотуристическая культура, экологическое сознание, экологическое мышление, экологическая компетентность, устойчивое развитие, личность студента, педагогическая методика, инновационные образовательные технологии, аксиологический подход, практико-ориентированное обучение.

## KIRISH

Zamonaviy globallashuv jarayonlari, texnogen taraqqiyotning jadallashuvi, antropogen omillarning biosfera tizimlariga ta'sirining keskin ortishi hamda resurslardan irratsional foydalanish natijasida yuzaga kelayotgan ekologik inqirozlar insoniyat oldida yangi sivilizatsion muammolarni keltirib chiqarmoqda. Iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning kamayishi, cho'llanish, suv resurslarining tanqisligi, sanoat va maishiy chiqindilarning ko'payishi kabi global ekologik tahdidlar jamiyatning barcha sohalarini, xususan, ta'lim tizimini tubdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda <sup>[1]</sup>. Chunki ekologik muammolar faqat texnologik yoki iqtisodiy choralar bilan emas, balki insonning dunyoqarashi, qadriyatlari, ekologik ongi va madaniy xulq-atvori transformatsiyasi orqali hal etilishi mumkin. Shu ma'noda ekologik ta'lim va tarbiya ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi, shaxsning tabiatga mas'uliyatli munosabatini shakllantiruvchi strategik omil sifatida namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda ekologik muammolarni hal etishda "inson-tabiat-jamiyat" tizimining dialektik yaxlitligini anglash, biosferaning muvozanat mexanizmlarini saqlashga yo'naltirilgan ongli faoliyatni tashkil etish muhim



ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur jarayonda ekologik madaniyat tushunchasi alohida nazariy-metodologik kategoriya sifatida shakllanib, u nafaqat bilimlar majmui, balki shaxsning aksiologik pozitsiyasi, ma'naviy ehtiyojlari, ekologik xulq-atvor me'yorlari hamda amaliy faoliyat tajribasini integratsiyalashgan holda ifodalaydi. Ekologik madaniyatni shakllantirish esa, o'z navbatida, ekologik ta'lim va tarbiyaning uzluksizligi, tizimliliigi hamda faoliyatga yo'naltirilganligi bilan chambarchas bog'liqdir.

Ayniqsa, oliy ta'lim bosqichida tahsil olayotgan talabalar ijtimoiy-intellektual resurs sifatida jamiyatning kelajakdagi ekologik siyosati, iqtisodiy rivojlanishi hamda madaniy transformatsiyasini belgilovchi muhim subyektlar hisoblanadi <sup>[2]</sup>. Talaba yoshlar shaxsiy qarashlari, hayotiy strategiyalari va kasbiy kompetensiyalari shakllanayotgan davrda bo'lib, aynan shu bosqichda ularning ekologik ongini rivojlantirish, tabiatga mas'uliyatli munosabatini mustahkamlash va barqaror rivojlanish g'oyalarini ichki e'tiqod darajasiga ko'tarish muhim pedagogik vazifa sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan ekologik ta'lim jarayoni faqat nazariy bilimlarni uzatish bilan cheklanmasdan, balki talabalarning bevosita tajribaviy faoliyatini tashkil etish, tabiat bilan interaktiv muloqotni kuchaytirish hamda real ekologik muhitda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilishi zarur.

Mazkur ehtiyojlar fonida ekoturizm fenomeni ekologik-ma'rifiy faoliyatning samarali shakllaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ekoturizm tabiatni muhofaza qilish, mahalliy ekotizimlarni asrash, ekologik ongni oshirish va barqaror turizm tamoyillarini amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy-madaniy jarayon bo'lib, u shaxsning tabiat bilan bevosita hissiy-intellektual hamkorligini ta'minlaydi. Bunday faoliyat shakli talabalarda ekologik bilimlarni amaliy tajriba bilan uyg'unlashtirish, kuzatish, tahlil qilish, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish hamda ekologik mas'uliyatni shaxsiy qadriyat darajasiga olib chiqish imkonini beradi. Shu sababli ekoturizm ekologik ta'limning samarali pedagogik platformasi sifatida qaralib, talabalarda ekoturistik madaniyatni shakllantirishning innovatsion mexanizmlarini ishlab chiqishni talab etadi <sup>[3]</sup>.

Ekoturistik madaniyat tushunchasi o'z mohiyatiga ko'ra ko'p qirrali va integrativ xarakterga ega bo'lib, u ekologik ong, ekologik tafakkur, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish ko'nikmalari, tabiatni muhofaza qilishga doir fuqarolik mas'uliyati, ijtimoiy-huquqiy me'yorlarga rioya qilish, shuningdek, estetik va axloqiy qadriyatlarining uyg'unligini ifodalaydi. Boshqacha aytganda, ekoturistik madaniyat – bu shaxsning tabiatga zarar yetkazmasdan sayohat qilish, atrof-muhitni asrash, mahalliy madaniyat va an'analarga hurmat bilan munosabatda bo'lish hamda ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan ongli faoliyati tizimidir. Bunday madaniyatni shakllantirish tasodifiy jarayon emas, balki ilmiy asoslangan pedagogik metodika, maqsadli ta'limiy strategiyalar va tizimli tarbiyaviy ta'sirni talab etadi.

Zamonaviy pedagogika fanida shaxsni rivojlantirishga yo'naltirilgan kompetensiyaviy, aksiologik, faoliyatli va tizimli yondashuvlar ekologik ta'limni tashkil etishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi <sup>[4]</sup>. Kompetensiyaviy yondashuv talabalarda ekologik muammolarni hal etish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirishni ko'zda tutsa, aksiologik yondashuv ekologik qadriyatlar tizimini ichkilashtirishga yo'naltiriladi. Faoliyatli yondashuv bilimlarni real faoliyat jarayonida mustahkamlashga, ya'ni ekoturistik ekspeditsiyalar, dala amaliyotlari, ekologik monitoring hamda ijtimoiy loyihalar orqali o'rganishga asoslanadi. Tizimli yondashuv esa ekologik ta'limni uzluksiz va bosqichma-bosqich rivojlantirishni nazarda tutadi. Mazkur yondashuvlarning integratsiyasi talabalar ekoturistik madaniyatini shakllantirishning metodik asoslarini yaratadi.

Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar va innovatsion pedagogik vositalarning rivojlanishi ekologik ta'lim jarayoniga yangi imkoniyatlar olib kirib, virtual laboratoriyalar, geoinformatsion tizimlar, onlayn monitoring platformalari hamda interaktiv simulyatsiyalar yordamida talabalar ekologik jarayonlarni modellashtirish, tahlil qilish va prognozlash ko'nikmalariga ega bo'lmoqda <sup>[5]</sup>. Bu holat ekoturistik faoliyatni ilmiy asosda rejalashtirish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash hamda barqaror turizmni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mavjud amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'plab oliy ta'lim muassasalarida ekologik ta'lim ko'proq nazariy ma'ruzalar va seminarlar bilan cheklanib, talabalarni real ekologik faoliyatga jalb etish darajasi yetarli emas. Natijada ekologik bilimlar bilan ekologik xulq-atvor o'rtasida muayyan tafovut yuzaga kelmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ekologik ta'lim hamda ekoturistik madaniyatni shakllantirish muammosi xalqaro ilmiy diskursda barqaror rivojlanish paradigmasi doirasida ko'rib chiqilib, mazkur jarayon shaxsning ekologik ongini transformatsiyalash, ijtimoiy mas'uliyatini kuchaytirish va tabiatdan foydalanish amaliyotini normativ-aksiologik mezonlar bilan muvofiqlashtirish mexanizmlari orqali asoslanadi. Xorijiy tadqiqotlarda ekoturizm ko'proq ekologik savodxonlikni oshiruvchi ta'limiy platforma sifatida talqin qilinib, uning pedagogik salohiyati tajribaviy o'qitish, maydon amaliyoti va jamoaviy refleksiya jarayonlari bilan integratsiyada ochib beriladi. Shu ma'noda ekoturistik faoliyat talabalarda nafaqat bilim va ko'nikmalarni, balki ekologik qadriyatlar tizimini ichkilashtirishga xizmat qiluvchi transformativ o'quv muhiti sifatida baholanadi.

Mazkur yo'nalishda Ralf Bakli (Ralf Buckley) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ekoturizmni ijtimoiy-ekologik tizimlar bilan uzviy bog'langan kompleks fenomen sifatida tahlil qiladi. Olimning konseptual qarashlariga ko'ra, ekoturizmning samaradorligi uning faqat iqtisodiy daromad keltiruvchi faoliyat ekanligi bilan emas, balki tabiatni muhofaza qilishga qo'shgan real hissi, ishtirokchilarning ekologik xulq-atvori o'zgarishi hamda uzoq muddatli barqarorlik ko'rsatkichlari bilan belgilanadi. U ekoturistik dasturlarni "learning-through-experience" modeli asosida tashkil etish zarurligini ta'kidlab, tabiat qo'riqxonalari, milliy bog'lar va bioxilma-xillik hududlarida olib boriladigan amaliy kuzatuvlar, monitoring ishlari hamda ekologik volontyorlik faoliyati talabalarning ekologik kompetentligini sezilarli darajada oshirishini empirik ma'lumotlar bilan asoslaydi. Baklining fikricha, aynan shunday tajribaviy mexanizmlar ekologik bilimni kognitiv darajadan aksiologik va xulqiy darajaga ko'taradi, bu esa ekoturistik madaniyatning ichki motivatsion negizini shakllantiradi <sup>[6]</sup>.

Shuningdek, Anna Spenseley (Anna Spenceley)ning tadqiqotlari ekoturizmni barqaror rivojlanishning ijtimoiy-adolatli modeli sifatida talqin etib, uning mahalliy hamjamiyatlar, ta'lim muassasalari va yoshlar ishtirokidagi ko'p subyektli hamkorlik asosida samarali ishlashini ko'rsatadi. Olimaning metodologik yondashuvda ekoturizm ekologik ma'rifatni kengaytirish bilan bir qatorda fuqarolik faolligi, madaniy merosga hurmat hamda tabiatga nisbatan etik mas'uliyatni shakllantiruvchi ijtimoiy-pedagogik institut sifatida baholanadi. U talabalarning dala amaliyotlari, ekologik loyihalarda ishtiroki hamda refleksiv tahlil jarayonlarini integratsiyalashgan holda tashkil etish orqali "transformative sustainability learning" mexanizmi yuzaga kelishini ta'kidlaydi, ya'ni o'quvchi shaxsning dunyoqarashi tubdan qayta qurilib, ekologik qadriyatlar uning hayotiy pozitsiyasiga aylanadi. Spenseley ekoturizmni aynan ta'lim jarayoniga integratsiyalash orqali yosh avlodda uzoq muddatli ekologik madaniyatni shakllantirish mumkinligini ilmiy asoslaydi <sup>[7]</sup>.

Shunday qilib, xorijiy ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, ekoturizmning pedagogik salohiyati uning tajribaviylik, ishtirokiylik va qadriyatga yo'naltirilganlik xususiyatlari bilan belgilanadi. Bu holat ekologik ta'limni nazariy-ma'lumot berish bosqichidan shaxsning ekologik xulq-atvorini shakllantiruvchi amaliy-faoliyatli bosqichga olib o'tadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini tizimli, kompetensiyaviy, aksiologik, faoliyatli hamda integrativ yondashuvlar majmui tashkil etib, ular ekologik ta'lim va tarbiya jarayonini talaba shaxsining ekologik ongini, ekoturistik kompetentligini va mas'uliyatli xulq-atvorini shakllantirishga yo'naltirilgan yaxlit pedagogik tizim sifatida talqin etish imkonini berdi. Tadqiqotda nazariy darajada falsafiy-dialektik tahlil, kategoriyaviy apparatni aniqlashtirish, ekologik madaniyat va ekoturizm fenomenlarining strukturaviy-komponentli modellashuvi uchun kompleks diagnostik mezonlar tizimi ishlab chiqildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Olib borilgan tajriba-sinov ishlari natijalari ekologik ta'lim va tarbiya asosida ishlab chiqilgan, ekoturistik madaniyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik modelning pedagogik samaradorligini empirik jihatdan tasdiqladi. Ya'ni shakllantiruvchi bosqichda ekologik-ma'rifiy integratsiya, dala amaliyotlari, ekoturistik ekspeditsiyalar, muammoli vaziyatli topshiriqlar, loyiha asosida o'qitish, servis-o'qitish, refleksiv tahlil hamda raqamli monitoring vositalari tizimli ravishda joriy etilgan eksperimental guruh talabalari nazorat guruhiga nisbatan ekologik bilimlarning chuqurligi, ekologik tafakkurning tizimlili, tabiatga mas'uliyatli munosabatning aksiologik mustahkamligi, ekologik qaror qabul qilish kompetentligining rivojlanganligi hamda real ekoturistik faoliyatdagi xulq-atvor ko'rsatkichlari bo'yicha sezilarli ijobiy dinamikani namoyon etdi.

Diagnostik o'lchovlar ekologik kompetentlikning kognitiv komponenti (ekotizimlar, bioxilma-xillik va barqaror turizm tamoyillari haqidagi bilimlar), operatsion-faoliyatli komponenti (dala sharoitida kuzatish, monitoring, chiqindilarni boshqarish, resurslardan oqilona foydalanish ko'nikmalari) va aksiologik-motivatsion komponenti (ekologik qadriyatlar, ichki mas'uliyat, tabiatga ehtiyotkor munosabat) o'rtasida uzviy bog'liqlik kuchayganini ko'rsatdi. Shuningdek, statistik tahlillar natijasida eksperimental guruhda yuqori darajadagi ekoturistik madaniyatga ega talabalar ulushi keskin ortib, past darajadagi ko'rsatkichlar kamaygani, ekologik tashabbuskorlik, volontyorlik va jamoaviy ekologik loyihalarda ishtirok etish faolligi barqaror ravishda oshgani, bilim bilan xulq-atvor o'rtasidagi tafvut qisqargani hamda ekologik ongning amaliy faoliyatga transferi kuchaygani aniqlandi. Bu esa taklif etilgan metodikaning talabalarda barqaror ekologik pozitsiya, refleksiv tafakkur va mas'uliyatli ekoturistik xatti-harakatlarni shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ilmiy asoslash imkonini berdi.

Ekologik ta'lim va tarbiya asosida talabalar ekoturistik madaniyatini shakllantirish muammosi xalqaro ilmiy diskursda turli nazariy pozitsiyalar hamda metodologik yondashuvlar kesishmasida rivojlanib, ushbu jarayonning samaradorligi borasida olimlar o'rtasida ma'lum darajada polemik qarashlar shakllangan. Xususan, Ralf Bakli va Anna Spenseley konseptual yondashuvlari mazkur masalaning turli jihatlarini yoritib, ekoturizmning





ta'limiy potentsiali hamda uning shaxs ekologik madaniyatiga ta'siri xususida ilmiy bahs-munozaralarga asos yaratadi. Baklining pozitsiyasiga ko'ra, ekoturizm, avvalo, tabiatni muhofaza qilish va bioxilma-xillikni saqlashga xizmat qiluvchi amaliy mexanizm sifatida talqin etilishi lozim bo'lib, uning pedagogik ahamiyati bevosita ekologik faoliyat jarayonida namoyon bo'ladi <sup>[8]</sup>. U "tajriba orqali o'rganish" modelini asosiy determinant sifatida ko'rib, talabalarning real ekotizimlarda kuzatuv olib borishi, ekologik monitoring, volontyorlik va konservatsiya loyihalarida ishtiroki ekologik ongni chuqurroq shakllantirishini ta'kidlaydi. Baklining fikricha, faqat auditoriya doirasidagi nazariy bilimlar ekologik xulq-atvorga yetarlicha transformatsiyalanmaydi, shu bois ta'lim jarayoni tabiat bilan to'g'ridan-to'g'ri interaktiv aloqaga asoslanishi shart. U ekoturizmni shaxsning ekologik javobgarligini kuchaytiruvchi "behavioural catalyst", ya'ni xulqiy katalizator sifatida baholab, ekologik madaniyatni shakllantirishning bosh omili aynan amaliy faoliyat ekanligini empirik dalillar bilan asoslaydi <sup>[9]</sup>.

Biroq Spenseley ushbu yondashuvni ma'lum darajada tor doirali deb hisoblab, ekoturizmning faqat konservatsion-amaliy funksiyasi bilan cheklanib qolishi shaxsda barqaror qadriyatlar tizimini shakllantirish uchun yetarli emasligini ta'kidlaydi. Uning nazariyasida ekoturizm ijtimoiy-pedagogik va aksiologik jarayon sifatida talqin etilib, unda mahalliy hamjamiyatlar bilan hamkorlik, madaniy merosga hurmat, ijtimoiy adolat hamda refleksiv o'qitish mexanizmlari markaziy o'rin egallaydi. Spenseleyga ko'ra, agar talaba faqat ekologik faoliyatni bajaruvchi subyekt sifatida ishtirok etsa-yu, lekin o'z harakatlarining ijtimoiy, madaniy va axloqiy mazmunini anglamasa, unda shakllangan ko'nikmalar uzoq muddatli barqarorlik kasb etmaydi. Shu bois u ekoturistik ta'limni "transformative learning" konsepsiyasi asosida qurishni taklif etib, bunda refleksiya, munozara, tanqidiy tafakkur va qadriyatlarni ichkilashtirish jarayonlari hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ilgari suradi <sup>[10]</sup>.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari ekologik ta'lim va tarbiya jarayonini talabalarda ekoturistik madaniyatni shakllantirishning strategik va tizimli mexanizmi sifatida tashkil etish zamonaviy oliy ta'limning ustuvor vazifalaridan biri ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nig'matov A., Shomurotova N. Ekoturizm asoslari // O'quv. – 2007.
2. Shohbozbek E. Theoretical foundations for the development of the spiritual worldview of youth // Maulana. – 2025. – 1(1). – B. 29–35.
3. Boyatov O., Solijonov O. Ekoturizm va yashil ta'lim orqali barqaror kelajak sari // Shokh Articles Library. – 2025. – T. 1. – № 2.
4. Muruvvat A., Shohbozbek E. The role of preschool education in spiritual and moral values in Uzbekistan // Global Science Review. – 2025. – 3(2). – B. 246–253.
5. Baxtiyorova D. O'zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishda xalqaro modellarni qo'llash yo'llari // Conference on the Role and Importance of Science in the Modern World. – 2025. – T. 2. – № 5. – B. 84–87.
6. Ergashbayev S. Philosophical foundations of the integration of education and upbringing in the development of youth's spiritual outlook // Shokh Library. – 2025. – 1(10).
7. Umronov E. O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari va istiqbollari // Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук. Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2025. – T. 5. – № 6. – C. 101–107.
8. Atxamjonovna B. D., Shohbozbek E. Forming the spiritual worldview of youth in pre-school education in our republic // Global Science Review. – 2025. – 4(5). – B. 221–228.
9. Toshev N. Mintaqada turizmni rivojlantirishda aglomeratsiyani optimal joylashtirishning dolzarbligi // Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – T. 3. – № 14. – C. 51–54.
10. Ergashbaev Ш. Ўзбекистон шароитида узлуксиз таълим тизими орқали ёшларнинг маънавий дунёқарабини ривожлантириш // Объединяя студентов: международные исследования и сотрудничество между дисциплинами. – 2025. – 1(1). – C. 314–316.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №2(2)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.